XALQ DEPUTATLARI IZBOSKAN TUMAN KENGASHI
QARORI

2023 - yil 30 - oktabr VI-45-69-1-22-K/23 Izboskan tumani hokimligi

Andijon viloyati prokuraturasining 2023-yil 30-oktiyabr kungi №21/94-23-sonli taqdimnomasi to’g’risida

Andijon viloyati prokuraturasining 2023-yil 30-oktiyabr kungi № 21/94-23-sonli taqdimnomasini ko’rib chiqib, O’zbekiston Respublikasi “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputati maqomi to’g’risida”gi Qonunning 11-, 12 - moddalariga asosan Xalq deputatlari Izboskan tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Andijon viloyati prokuraturasining 2023-yil 30-oktiyabr kungi №21/94-23-sonli deputatlik daxilsizligi huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi taqdimnomasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputati maqomi to’g’risida”gi Qonunning 11-, 12-moddalariga asosan, “3-Chungbogish” saylov okrugidan saylangan tuman Kengashi deputati Qambarov Baxodir Qodirjonovich deputatlik daxlsizligi huquqidan mahrum qilishga rozilik berilsin.

3. Xalq deputatlari Izboskan tuman Kengashi kotibiyati qabul qilingan qarorni Andijon viloyati prokuraturasiga taqdim etsin.

4. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Izboskan tuman Kengashining Reglament va deputatlik odobi masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi raisi O.Mirzayeva zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **S.Ismoilov**